

## IXARA SAYKAKU ASARLARIDA SHAHAR HAYOTI TALQINI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-22-45-49>

**Egamova Kamola Akmal qizi**

TDSHU Yaponshunoslik fakulteti, o'qituvchi-stajor

[egamovakamola995@gmail.com](mailto:egamovakamola995@gmail.com)

### ABSTRACT

*Ihara Saikaku was poet and novelist, one of the most brilliant figures of the 17th-century revival of Japanese literature. Saikaku in his works such as "The Eternal Storehouse of Japan" and "This Scheming World" described the life of townspeople, merchants, artisans, peasants. He reflects on how to live and work in order to get rich, and about new ways of trade and handicrafts that bring income, the detailed coverage of the feelings and thoughts of the townspeople determines the relevance of the article. The main objective of this article is to get an idea of how in the novels of Ihara Saikaku, who is a representative of the 17th century literature, the image of a city dweller is displayed, about those aspects of the way of life of the townspeople that were not covered before that time.*

**Keywords:** *Ihara Saykaku, Genroku period, townspeople, ukiyo-zoshi*

### АННОТАЦИЯ

*Ихара Сайкаку был поэтом и писателем, одним из самых ярких деятелей возрождения японской литературы XVII века. Сайкаку в своих произведениях «Вечная сокровищница Японии» и «Заветные мысли о том, как лучше прожить на свете» описывал жизнь горожан, купцов, ремесленников, крестьян. Он размышляет о том, как жить и работать, чтобы разбогатеть, и о новых способах торговли и ремесел, приносящих доход, подробное освещение чувств и мыслей горожан определяет актуальность статьи. Основная цель данной статьи - получить представление о том, как в романах Ихары Сайкаку, представителя литературы XVII века, отображается образ горожанина, о тех сторонах быта горожан которые не были покрыты до этого времени.*

**Ключевые слова:** *Ихара Сайкаку, период Гэнроку, горожане, укиё-дзоси.*

### ANNOTATSIYA

*Ixara Saykaku shoir va yozuvchi bo'lib, XVII asr yapon adabiyotining eng ko'zga ko'ringan namoyandalardan biri. Saykaku o'zining "Yaponiyaning abadiy xazinasini" va "Dunyoning hisob-kitoblari" kabi asarlarida shaharliklar, savdogarlar, hunarmandlar, dehqonlar hayotini ko'rsatgan. U boylik orttirish uchun qanday yashash va ishlash kerakligini, savdo va hunarmandchilikda foyda keltiruvchi yangi usullar haqida so'z yuritgan bo'lib, shaharliklarning his-tuyg'u va o'y-kechinmalarini chuqurroq yoritish ushbu maqola dolzarbligini belgilaydi. Ushbu maqolada XVII asr adabiyoti vakili Ixara Saykaku qalamiga mansub novellalarda shaharlik inson obrazining gavdalanishi, shaharliklar turmush-tarzining ochiq ko'rsatilmagan jabhalari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Ixara Saikaku, Genroku davri, shahar aholisi, ukiyo-zoshi*

XVII asrda Yaponiyada hokimiyat tepasiga Tokugava sulolasi kelgach, mamlakatning nafaqat siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy hayotida, balki madaniyat sohasida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Uchinchi qatlam hisoblanuvchi savdogarlar va hunarmandlar qatlamining nufuzi orta borishi sari

ularning har bir sohaga o'tkazuvchi ta'sir doirasi ham kengaya bordi. Bu o'zgarishlar adabiyot sohasini ham chetlab o'tmadi.

Jumladan, barcha san'at asarlarining katta qismi tobora yangi auditoriya – shahar aholisi uchun mo'ljallana boshlandi. Asarlar ularning hayoti, qiziqishlari, tashvishlari, xohish-istaklari tasviriga bag'ishlanar edi. Shahar hayoti, unda istiqomat qiluvchi va o'z tashvishlariga bilan band bo'lgan insonlar san'at predmetiga aylandi.

XVII asr shahar madaniyatining eng rivojlangan pallasi Genroku davriga to'g'ri keldi. Genroku davriga “yapon Uyg'onish davri” sifatida qarash an'anasi mavjud. N. I. Konrad XVII-XVIII asrlarni “yapon ma'orif davri” deya ataydi<sup>1</sup>. V. Markova va I. Lyvova “Genroku davridagi yapon madaniyati o'zida kechki Uyg'onish davri va maorif davri elementlarini jamlagan” deya hisoblaydilar.<sup>2</sup>

T. P. Grigoryeva Genroku davri haqida so'z yuritir ekan, unga “yarim yo'lda to'xtagan Uyg'onish davri” deya baho beradi. Uning fikriga ko'ra, obyektiv shart-sharoitlar uchinchi qatlam vakillari madaniyati rivojlanishiga yo'l ochib, Yaponiyada Uyg'onish davri gullab yashnashiga imkon paydo qildi, ammo bu imkon haqiqatga aylanmadi. Faqatgina bunga zamin yaratish bilan kifoyalanildi: shaharlar rivojlandi, uchinchi qatlam vakillari uyg'ondi, millat ta'lim darajasi ko'tarildi. Ammo to'laqonli Uyg'onish davri yuz berishi uchun boshqa kerakli unsurlar yetishmas edi. Bular shaxsiy erkinlik, Uyg'onish davri gumanizmiga o'xshash madaniy harakat yuz berishiga imkon beruvchi davlat boshqaruv shakli kabilar edi.<sup>3</sup>

Bu davrga kelib adabiyotda “ukiyo-zoshi” (“o'tkinchi dunyo haqidagi qaydlar”) yo'nalishi vujudga keldi va xalq orasida keng ommalashdi. Ana shu yo'nalishni Genroku davri adabiyotining ustuvor yo'nalishi sifatida tanitgan adib esa Ixara Saykaku edi.

Ixara Saykaku ham bor diqqatini hayot lazzatlarini tuygan insonlar taqdirini yoritishga qaratdi va uning asarlari yapon adabiyotida tub burilish yasadi. U shahar aholisi hayotini bor ranglari bilan, bor haqiqatlari bilan tasvirlab berdiki, biz uning kitoblarini “shahar hayoti ensiklopediyasi” deb atashimiz mumkin. U yaratgan qahramonlar samimiy bo'lib, yozish uslubi esa jimjimadorlikdan holi edi. U barchaga tushunarli bo'lgan so'zlashuv uslubida qalam tebratgan.

Ixara Saykaku ijodi rivojini kuzata turib, shuning guvohi bo'lish mumkinki, ijodi boshida o'tkinchi bu hayotda lazzat olib, sevgi hislarini tuyib yashashga chorlagan adib, vaqt o'tgan sari burch, diyonat haqida yoza boshladi. Umrining so'ngiga borib esa shaharliklar uchun yo'riqnoma sifatida xizmat qiluvchi xo'jalik va savdo ishlarini to'g'ri yuritish haqida asarlar yaratdi. Uning barcha asarlari XVII asr muhitini anglashga yordam beradi.

O'rta asrlar adabiyotidan chetda qolib kelgan inson turmush tarzining va xulq-atvorining ba'zi jabhalari Saykaku ijodida badiiy ahamiyat kasb etdi. Saykakuning shahar hayotini tushinishi va unda istiqomat qiluvchilarning barcha yaxshi-yomon xususiyatlarini ko'rsatishi, bu hayotga xos qarama-qarshiliklarni anglab yetishi, uning yashirin tomonlarini ko'ra olishi yozuvchi o'z ijodida voqelikni tasvirlashda haqqoniy va real yondashuvga tayanishidan dalolat beradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Saykaku umri oxiriga borib “choninmono” (町人物) ya'ni “shaharliklar uchun kitoblar” yozishga kirishdi.

“Shaharliklar uchun kitoblar” - qiziq va bir vaqtning o'zida ibratli bo'lgan novellalar to'plami bo'lib, ularning qahramonlari adibning zamondoshlaridir. Bu to'plam ichiga “Yaponiyaning abadiy xazinasini” (「日本永代蔵」), “Dunyoning hisob-kitoblari” (「世間胸算用」) va “Saykakuning

<sup>1</sup> Н. И. Конрад «История современной японской литературы», М., 1961. – С.344

<sup>2</sup>4 Маркова В., Львова И. Мондзаэмон Тикамацу. Драммы. М., 1963. – С.24.

<sup>3</sup>Т. П. Григорьева. Возрождение остановившееся на полпути (О периоде Гэнроку в Японии) Статья.

Опубликована в Проблемы периодизации истории литератур народов Востоке – М.: Наука, 1968. – С.182.

so'nggi naqshlari" (「西鶴織留」 kabi asarlar kiradi. Saykaku niyatiga ko'ra bu kitoblar kundalik hayotda oqil bo'lish uchun o'ziga xos darslik vazifasini o'tashi, hayotda yaxshi yashab o'tish uchun asqotishi kerak edi. Saykaku shaharlik kitobxonlariga o'z ijtimoiy holatlariga qarab harakat qilishlari va tejamkorlikka intilishlari lozimligini uqtirgan.

“Dunyoning hisob-kitoblari” (「世間胸算用」 / “Seiken mune zanyo”) asari ham “Yaponiyaning abadiy xazinasi” asari kabi shaharliklar uchun mo'ljallangan bo'lib, ularga hayotda omadga erishish uchun qanday amallar bajarish kerak, va aksincha, kasodga uchramaslik uchun qanday odatlardan o'zni saqlamoq lozimligi haqida maslahatlar berilib, yo'l-yo'riq ko'rsatilgan.

Bu kitobda Saykaku hayotda omadga erishish uchun nima qilish kerakligiga to'g'ridan to'g'ri ishora qiladi: “Dunyoda puldan yaxshi narsa yo'q, agar u serob bo'lsa. Buning uchun esa inson quyidagicha yashamog'i lozim: yigirma besh yoshida, hali navqiron paytida bekor bo'lmasdan bilim olish kerak; o'ttiz besh yoshida eng kuchga to'lgan paytida pul ishlab topib jamg'arish lozim; ellik yoshida aql-idrokka to'lgan paytida o'z ishining asosini mustahkamlashi va oltmish yoshga to'lishiga bir yil qolganda o'z xo'jaligini katta o'g'liga topshirib kutilgan xordiqqa erishish lozim”.

“Dunyoning hisob-kitoblari” asari 1692-yilda chop etilgan bo'lib, yil oxiriga kelib qarzlardan qutula olmagan insonlarning umidsizlangan ahvolini bayon etuvchi novellalar to'plamidir. Qahramonlarning yoqimsiz xarakteriga (ular berahm sudxo'rlar, bebaxt qarzdorlar, qarzlarni to'lamay qochib yuruvchi qalloblar) qaramay, asarning yorug' jihatlari ham mavjud. Ammo ba'zi olimlar asardagi eng qayg'uli ikki-uch novellalarni tanlab olib, bu kitobda Saykakuning o'sib borayotgan alamlari, yapon iqtisodiyotining yomonlashishi tufayli hayotga nisbatan paydo bo'lgan umidsizligi ifodalangan degan qarashlarni ilgari suradilar. Shu o'rinda eslash lozimki, Saykakuning ilk romani bo'lgan “Ishqiy ehtirolarda tengsiz erkak” asari ocharchilik yillarida yozilgan bo'lsada, zavq-shavqqa to'la bo'lib, unda ochlikdan aziyat chekkan insonlar uchun qayg'urish hislarini topish qiyin.<sup>4</sup>

“Dunyoning hisob-kitoblari” asarini tahlil qilish jarayonida XVII asrga kelib Yaponiyada savdogarlar qatlamining nufuzi ortib, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy hayotidagi mavqeyi mustahkamlanib borgan bo'lsada, boylikni o'z qo'lida ushlab turish, kasodga uchramaslik, farovon hayot kechirish hamon mushkul bo'lib, bu ulardan doimiy mehnat va uddaburonlikni talab etishi ko'rindi.

Asarning asosiy mavzusi “omisoka” (大晦日) kuni tashvishlaridan iboratdir. Bu kun yilning oxirgi kuni bo'lib, unda savdogarlar va sudxo'rlar orasida hisob-kitob amalga oshiriladi. Yaponiyada o'sha davr iqtisodiy munosabatlariga ko'ra, foiz evaziga nasiyaga mahsulot sotish yoki foiz evaziga pul qarz berish (sudxo'rlik) ommalashgan bo'lib, mavsum yakunida, ayniqsa, yangi yil bayrami kirib keluvchi kun bu qarzlarni to'langan.

Barcha novellalardagi voqea-hodisalar yangi yil kirib keluvchi kunda sodir bo'lib, Osakadan tortib Edogacha, shuningdek, Sakai, Nagasaki va Nara kabi hududlarni qamrab oladi. Bunda badavlat savdogarlar qatori kambag'al oilalarning hayoti ko'rsatib berilgan. Novellalar orasida jamoaviy tasvirlar ham ko'p bo'lib, ularda yagona qahramon ajratib ko'rsatilmaydi. Kambag'al savdogarlarning qiyin iqtisodiy hayoti va unda yashab qolish uchun kurashishi insonda mungli taassurot uyg'otsada, asar yumor va kulgudan holi emas.

Yangi yil arafasida qarzlarni to'lashga majbur savdogarlar qiyin ahvolda qolardilar. Qarzlardan qutulmasa yangi yilni ham kutib olishga haqlari yo'q edi. Ana shunday nochor shaharlik inson obrazi novellalarning markazida turadi. Bu insonlar sudxo'rlar tazyiqidan qutulish maqsadida turli xil hiyla-nayranglarni o'ylab topishar, aks xolda, bor-budlaridan ayrilishga majbur edilar. Saykaku ko'pincha ana shunday kambag'allikning eng tubiga tushgan shaharlik insonlar hayotini yoritadi.

<sup>4</sup> Кин Д. Японская литература XVII—XIX столетий. “Наука”, М., 1978. – С.141

Saykaku shaharliklarni har tomonlama kuzatib, o'rganib, ularga baho berib, tayyor bo'lgan asarni kitobxonlar uchun qiymatga ega bo'lgan holga keltirgachgina ommaga taqdim etgan. Kitobxonlar bu asarni o'qir ekanlar, o'z hayot yo'llarini qayta ko'rib chiqib, hayotdagi maqsadlarini topgan bo'lsalar ajab emas. Saykakuning ushbu asarini tahlil qilish asnosida ko'pgina tadqiqotchilar 悲喜劇 ya'ni "tragikomediya" atamasini qo'llaganlariga guvoh bo'lamiz. Darhaqiqat, eng nochor ahvolda qolgan va o'zini oyoq-qo'li bog'loqdek his etayotgan savdogarlar holati juda achinarli bo'lsada, Saykaku unga yumor qo'shish orqali asarga iliqlik olib kira olgani e'tiborga molikdir.

Novellalardagi voqealar yangi yil bayrami arafasida sodir bo'lar ekan, Saykaku bu bayram tafsilotlarini keng yoritishga harakat qiladi. Jumladan, shaharliklar bu bayram uchun qanday tayyorgarlik ko'rishlarini, qanday taomlar tayyorlash an'anaga kirganini batafsil tasvirlaydi. Yaponlar yangi yil bayrami uchun Xoray<sup>5</sup> baxt tepaligini tayyorlab uni qarag'ay va qirqquloq shoxlari bilan yasatar edilar. Bu tepalik ustida esa albatta issebi<sup>6</sup> va dayday apelsinlari bo'lishi shart edi. Ammo bu mahsulotlar bayram arafasida juda qimmatlashib ketar va ularni sotib olishga qurbi yetmagan kambag'al insonlar yangi yilni mahzun kayfiyatda kutib olishga majbur edilar. Axir yaponlarda Xoray tepaligi to'liq yasatilmasa baxt ilohi uyga tashrif buyurmaydi deya ishonilgan.

Bu asarning e'tiborga molik jihatlaridan yana biri, unda ko'plab shaharlarning o'ziga xos jihatlarini yaqqol yoritilgan. Xususan, adib o'z novellalarida shaharlar hayoti va shaharliklarning turmush tarzi, ularning urf-odatlariga ta'rif berib, ularning bir-biridan farqlarini ko'rsatib bera olgan. Jumladan, asarda Kioto, Osaka, Edo, Sakai, Nagasaki, Nara kabi shahar aholisining turmush tarzi, o'ziga xos urf-odatlari, munosabat shakllari, oilaviy an'analari yaqqol va izchil tasvirlangan bo'lib, XVII asr yapon shahar muhitini his etish imkonini yaratadi. Saykaku bu asarda o'zining o'tkir kuzatuvchi ekanligini, boshqalar e'tiboridan chetda qoluvchi detallarga ahamiyat berib, har shaharning faqat o'zigagina xos jihatlarini topa olish qobiliyatiga ega sezgir yozuvchi ekanligini isbot etgan. Adibning shaharlik inson obrazi bilan bir qatorda, u istiqomat qiluvchi makonning ham ta'rif-u tavsifiga chuqur e'tibor qaratgani asarning badiiy qiymatini yanada oshiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Григорьева Т. П. Возрождение остановившееся на полпути (О периоде Гэнроку в Японии)) Статья. Опубликовано в Проблемы периодизации истории литератур народов Востоке – М.: Наука, 1968. – С.180-190.
2. Кин Д. Японская литература XVII-XIX столетий. М.: Наука, 1978. –428 с.
3. Н. И. Конрад «История современной японской литературы», М., 1961. – С.344
4. Маркова В., Львова И. Мондзаэмон Тикамацу. Драммы. М., 1963. 480 с.
5. Пинус Е. М. Городская литература в Японии XVII вв. и вопросы развития литературного метода.— «Вестник ЛГУ». Серия истории, языка и литературы. Вып. 14. Л., 1960. –С.51-60
6. Редько-Добровольская. Творчество Ихара Сайкаку. М., "Наука", 1980. –172 с.
7. Hibbett H. S., Saikaku as a realist, – «Harvard Journal of Asiatic studies», v. 15, 1952, December, N 3-4; pp. 408-418
8. Lane R., Postwar Japanese studies of the novelist Saikaku, – «Harvard Journal of Asiatic studies», v. 18. 1955, June, N 1-2, pp. 181-199;
9. 井原西鶴集。近代日本文学大系。第3卷。国民図書，昭2 – 949 p.
10. 谷脇理史。井原西鶴：浮世の認識者。新典社，1987。–278 p.
11. 鈴木敏也。西鶴の研究。天佑社，大正9。–366 p.

<sup>5</sup> Xoray – xitoy rivoyatlariga ko'ra baxt tepaligi joylashgan sirli orol. Yangi yil bayramida sun'iy kichik tepalik yasatish an'anasi mavjud bo'lib, u baxt va uzoq umr ko'rish ramzlarini anglatuvchi narsalardan iborat bo'ladi. Masalan, qarag'ay, bambuk, olxo'ri, toshbaqa, turna va b.

<sup>6</sup> Issebi – qizil rangli katta dengiz qisqichbaqasining bir turi bo'lib, Yangi yilning an'anaviy bezaklaridan biri edi.

- 
12. Akhmedova, Shakhlo Irgashbaevna. (2021). "SYMBIOSIS OF ARTISTIC TRENDS IN CONTEMPORARY LITERATURE OF THE ARAB COUNTRIES OF THE PERSIAN GULF." CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758) 2.09, 105-109.
  13. Akhmedova, Shakhlo Irgashbaevna. (2021). "Ideological and artistic searches in the short stories of the arab countries of the persian gulf at the beginning of the XXI century." Asian Journal of Multidimensional Research 10.10 , 838-842.
  14. khmedova, Shahlo Irgashbaevna (2017): "NOVELLISTICS IN THE ARAB COUNTRIES OF THE PERSIAN GULF." International Scientific and Practical Conference World science. Vol. 5. No. 4, 9-11.